

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**9.2021**

**научно-теоритический методический журнал  
Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2021**

**Haydarov Anvar Askarovich (BuxDU), Saidova Zulfizar Xudoyberdiyevna (BuxDU)**  
**RUHIY JARAYONLAR VA SHAXSIYAT XUSUSIYATLARI KONSEPTUAL ZONASI**  
**FRAZEOLOGIZMLARINING STRUKTUR GRAMMATIK TAHLILI**

*Annatsiya. Ushbu maqola ruhiy jarayonlar va inson shaxsiyati xususiyatlariga oid frazeologizmlarning ingliz, o'zbek va rus tillarida ifodalanishi qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada inson ruhiy holatini ifodalovchi frazeologizmlarning statistik tahlili masalalariga ham e'tibor qaratilgan.*

*Аннотация. Статья посвящена сравнительному анализу фразеологии психических процессов и личностных качеств в английском, узбекском и русском языках. В статье также рассматриваются вопросы статистического анализа фразеологии, описывающей психическое состояние человека.*

*Annotation. This article is dedicated to a comparative analysis of the embodiment of phraseology in English, Uzbek and Russian on mental processes and features of human personality. The article also focuses on the issues of statistical analysis of phraseology that describes the human mental state.*

*Калит so'zlar: ruhiy jarayon, shaxsiy xususiyat, onomasiomik yondashuv, frazeologizm, frazeologik chatishma, frazeologik qo'shilma, frazeologik butunlik.*

*Ключевые слова: психический процесс, личность, ономазиологический подход, фразеология, фразеологическая путаница, фразеологическая посадка, фразеологическая целостность.*

*Key words: mental process, personality, onomasiological approach, phraseology, phraseological confusion, phraseological landing, phraseological integrity.*

Tilning lug'at tarkibi faqat leksik birliklardan iborat bo'lmay, balki turg'un so'z birikmalaridan ham iboratdir. Tarkibi murakkab bo'lgan birikmalar yoki boshqacha aytganda, frazeologik birliklar tilning lug'at sostavini boyitishga xizmat qiladi. Tilshunoslikning qator sohalari singari frazeologizmlarni o'rganuvchi alohida soha – frazeologiya fan sifatida o'z yo'nalishiga ega. "Frazeologiya, deb yozadi Azim Hojiyev, grekcha "phrasiz – ibora, logos – fan, tushuncha, ta'limot": 1) tilshunoslikning frazeologik birliklarini o'rganuvchi bo'limi; 2) tilning frazeologik birliklar sostavi (majmuyi).<sup>1</sup>

Frazeologik birlik ikki va undan ortiq so'zlarning birikishidan hosil bo'ladi. Ular tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma'noni ifodalaydi. Frazeologik birliklar badiiy adabiyotda obrazli va ta'sirchan vosita sifatida ko'p ishlatiladi.

Frazeologik birliklarni har tomonlama ilmiy asosda o'rganishda jahon tilshunoslik va turkiyshunoslarning yetuk vakillaridan V.I.Jukov, A.V.Kunin, B.A.Larin, Y.Polivanov, V.V.Vinogradov, N.M.Shanskiy, A.Malinovskiy, V.L.Arhangelskaya, A.N.Fedorov, V.N.Teliya, A.V.Verner, V.G.Gak, B.Yo'l-doshev, A.Mamatov, Sh.Alimamatovlar nomlarini ko'rsatish mumkin.

Ingliz tilshunosligida esa ushbu sohada A.V.Kuninning xizmatlari benihoya katta bo'lib, u frazeologik birliklarni guruhlariga bo'lib o'rgandi. A.V.Kunin fikricha, "Frazeologik birliklar butunlay yoki qisman ko'chma ma'noni ifodalovchi turg'un birliklardir".<sup>2</sup> Olim frazeologik birliklarni uch tomonlama tasniflaydi: 1) frazeologik qo'shimmalar; 2) frazeologik butunliklar; 3) frazeologik chatishmalar.

Shunday qilib, frazeologik birliklar turli sohaviy guruhlariga bo'linadi. Biz ushbu maqolamizda inson ruhiyati va shaxsiyati bilan bog'liq fe'l so'z turkumiga oid frazeologizmlarning struktur-grammatik xususiyatlari tahliliga e'tibor qaratamiz.

Frazeologizmlar lingvistik belgi sifatida til sathida chegaralangan, mazmun plani va ifoda plaiga ajratilgan ikki tomonlama birlikdir. Frazeologik birlikning ifoda plani bu frazeologik birliklarning mazmunini o'zida mujassam qiluvchi struktura hisoblanadi.

Frazeologik birliklar tarkibining o'zi uning rasmiy tashkil etilishiga bog'liq bo'lmay, ma'lum darajada frazeologik birliklarning semantikasiga ta'sir qiladi.

Y.S.Kubryakovaning fikricha, "nutq bo'laklari orqali dunyoni kichkina bo'laklarga bo'lish mumkin. Ushbu bo'linish narsa va hodisaning tabiatiga mos ravishda amalga oshiriladi, shu tariqa, nutq bo'laklari, avvalo, inson tomonidan tushunilgan va farqli ravishda turli xil aniq obyektlar yoki aniq obyekt-larning nomlari bo'lib tan olingan bo'ladi".<sup>3</sup>

<sup>1</sup> Хожиев А. Лингвистик терминларнинг изохли луғати. Т., 1985, 105-бет.

<sup>2</sup> Кунин А.Б. Англо-русский фразеологический словарь. М., "Русский язык", 1984, 46-бет.

<sup>3</sup> Кунин А.Б. О фразеологической номинации. Труды. М., 1983, с. 116.

Frazeologik birliklarning mazmunini tahlil qilish – konseptual sinflar va semantik-grammatik kategoriyalar bo'yicha koinotning frazeologik vositalar yordamida semantik bo'linishning yanada to'liq va obyektiv ko'rinishini beradi, konseptual tarkibning aniq "xaritasini" tuzishda yordam beradi, lug'atdan farqli o'laroq, frazeologiya, shuningdek, obyektiv voqelikning turli sohalarini aniqlash faqat frazeologiyada qamrab olinadi. Hodisaning bunday tahlili – iboralarni shakllantirish jarayonining mantiqiy va psixologik asoslariga oydinlik kiritishi mumkin. Ushbu fakt ruhiy jarayonlar va shakl xususiyatlari konseptual zonasini kodlaydigan ingliz, o'zbek va rus tillarining frazeologik tarkibiy-grammatik tashkil etishini ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Frazeologik birliklar alohida tarkibli nominatsiyalarning muhim qismlarini tashkil etadi va tarkibiy qismlar o'rtasida muhim sintaktik aloqa mavjudligi bilan ajralib turadi. Belgilangan obyektga qarab, nominatsiyalarning ikki turi ajratiladi: Elementlar va situatsion (vaziyat). Vaziyat nominatsiyasi nafaqat struktura iborasi bilan, jumladan, maqollar va maqollarning tuzilishi bilan ham frazeologik birliklarning ko'pligi sababli elementar nominatsiya kabi muhimdir", deb ta'kidlaydi A.V.Kunin.<sup>1</sup>

Elementar va situatsion nominatsiyalar bo'yicha frazeologik birliklar quyidagi jadvalda aks etgan:

№	Strukturaviy turlari	Asosiy qiymati		
		Ingliz	Rus	O'zbek
1	Otga oid frazeologik birliklar	136	101	174
2	Sifatga oid frazeologik birliklar	173	149	151
3	Felga oid frazeologik birliklar	1206	905	1056
4	Ravishga oid frazeologik birliklar	123	152	144
5	Undov so'zlarga oid frazeologik birliklar	59	19	36
6	Predikativ frazeologik birliklar	100	384	96

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, har uchala tilda mavjud frazeologik birliklarning ko'pchiligini fe'lga oid frazeologik birliklar tashkil etadi. Masalan, V+N (Ingliz): Lose one's balance – сохранить память, strain one's ears – ворошить прошлое.

Ushbu modul bo'yicha qurilgan frazeologik birliklar, asosan, obyekt munosabatlarini ifodalaydi hamda ko'plab subzonalarni kodlaydi. Jumladan, "tuyg'u", "qabul qilish", "fikrlash", "xohish", "his tuyg'u", "shakl xususiyatlari" kabi taqqoslanayotgan tillarda frazeologik birliklar tarkibida ko'p komponentli frazeologik birliklar muhim tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Shular orasida "to be" binar strukturali nojumlaviy felga oid frazeologik birliklarning strukturaviy modellari orasida eng ko'p tarqalganlari quyidagilar:

**1. V+comp+N(rus); V+Comp+(d)+n(ingliz); V+N(O'zbek).**

Chatter like a maggie; sting like a wasp (ingliz tili).

трептать как птица; упирается как бык (rus tilida).

Qushday qaltiramoq (o'zbek tilida).

**2. V+adj (rus); V+adv(ingliz); V+adv (o'zbek).**

Fly high, talk big (ingliz).

Забегать вперед, видеть насквозь (rus tilida).

Oldinga olg'a bormoq (yurmoq) (o'zbek tilida).

**3. V+adj+N (ingliz); V+adj+N (rus); V+adj +N(o'zbek).**

Open old wounds; Present show, a bold front (ingliz tilida).

Беречь старые раны, строит воздушные замки (rus tilida).

Eski yaralarni yangilash (o'zbek tilida).

Misollardan ko'rinadiki, qiyoslanayotgan uchala tilda ham yuqoridagi modellar asosida shakllangan.

Frazeologik birliklar eng samaralilari bo'lib, ular bir xil subzonalarda berilgan "xayol"– "insonning his-tuyg'ulari, "shaxs xususiyatlari" kabi obyekt munosabatlari va insonning holatini ifoda etadi.

Ingliz tilida: keep a jealous eye on smb; rus tilida: завидовать черной завистью; o'zbek tilida esa hasad qilmoq kabi misollarni keltirish mumkin.

<sup>1</sup> Shu manba. 99-bet.

Shuningdek, obyektidan tashqari subyekt xususiyatlari umumiy ma'noga ega ekanligini ham ko'rsatadi. Ingliz tilida: have a quick (ready); rus tilida: жить чужим умом; o'zbek tilida bironing fikri bilan yashamoq yoki bironing izmida bo'lmoq kabi misollardir.

4. "To be" bog'lanishli uch komponentli tuzilishga ega bo'lgan nojumlaviv fe'li frazeologik birliklarning strukturaviy modellari ham mavjud.

**V+N+Adj (ingliz);**

**V+N+Adj (rus);**

**V+N+Adj (o'zbek);**

Ingliz tilida: carry (hold) one's head high; cost one's mind back; rus tilida: держать ухо востро; o'zbek tilida – boshi ko'kka yetmoq kabi.

Chog'ishtirilayotgan har uchala tilda fe'li, frazeologik birliklardan tashqari, boshqa so'z turkumlari bilan keluvchi frazeologik birliklar ham mavjud bo'lib, ular turli hissiyotlarni, jumladan, ko'rish hissiyoti ingliz tilida – (appear to smb's eyes, strike one's eyes, rus tilida – предстать перед глазами, o'zbek tilida – ko'zga tashlanmoq, ko'zdan g'oyib bo'lmoq; eshitish hissiyoti bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar ingliz tilida – fall on (upon) smb's ears, rus tilida – ласкать в слух, o'zbek tilida – qulog'iga lag'mon osmoq, qulog'iga tanbur chertmoq.

Hidlash yoki hid bilish hissiyoti bilan bog'liq frazeologiyalar ingliz tilida uchramaydi, o'zbek tilida esa burunga hidi urilmoq, rus tilida бросаться (ударять) в нос kabi frazeologik birliklar orqali ifodalanishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, ochlik, chanqoqlik va to'yish hissiyotini ifodalovchi frazeologik birliklar taqqoslanayotgan har uchala tildeham mavjud.

Ingliz tilida: have in one's throat, be full to the scuppers, rus tilida: сосет, живет подводит, o'zbek tilida: o'lguday och qolmoq, qorni yorilguday ovqat yemoq kabi misollarni keltirish mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ruhiy jarayonlar va shaxsiyat xususiyatlari konseptual zonasi frazeologik birliklarning struktur-grammatik tahlili shuni ko'rsatadiki, har bir so'z turkumiga oid frazeologik birliklar qiyoslanayotgan tillarda turlicha ma'no kasb etadi, chunki har qanday shakllangan frazeologik birliklar til egasi bo'lgan o'sha xalqning turmush tarzi, yashashi, urf-odatlarini, kasbi, intilishi, ma'naviyati, voqelikka munosabati bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababdan frazeologik birliklar tilda obrazlilik va ekspressivlikni yuzaga keltiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Бегматова Раъно Фахриддиновна (ЎзДЖТУ, PhD)  
ТИЛШУНОСЛИК ИЛМИДА ЮМШАТИШ КАТЕГОРИЯСИ ВА УНДА  
ЮКЛАМАЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ**

*Аннотация.* Мақолада митигация лингвистик ҳодисаси юкламалар воситасида намоён бўлиши бир неча тиллар мисолида ёритилган бўлиб, унда дунё етакчи олимларининг назарий қарашлари таҳлили баён қилинган.

*Аннотация.* В статье описывается проявление лингвистического феномена смягчения посредством частиц на примере нескольких языков, описывается анализ теоретических воззрений ведущих ученых мира.

*Annotation.* The article describes the manifestation of the linguistic phenomenon of download mitigation using the example of several languages, which describes the analysis of the theoretical views of the world's leading scientists.

**Калит сўзлар:** лисоний митигация, юмшатиш категорияси, юклама, комплекс вазифалар, сертакаллуфлик.

**Ключевые слова:** лингвистическое смягчение, категория смягчения, частицы, сложные задачи, вежливость.

**Key words:** linguistic mitigation, mitigation category, particle, complex tasks, politeness.

Маълумки, тил илмида юмшатиш функцияси категория сифатида таърифланиб, унинг вербаллаштирувчи воситалари лингвистикада қиёсий ва бир тил мисолида кўп бора таҳлилга тортилган. Е.А.Рыжук немис ва инглиз тиллари коммуникатив юмшатиш категориясини академик дискурснинг турли жанрларида таҳлил қила туриб, икки турга: лингвистик ва грамматик воситаларга ажратади. У инглиз тилида лексик воситалар сон ва частотасига кўра кўп учрашини, немис тилида эса грамматик воситалардан нисбатан кўпроқ фойдаланилишини таъкидлайди.